

JAHON TA'LIMI TIZIMI TARAQQIYOTINING NAZARIY- PEDAGOGIK ASOSLARI BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Xolmatov Pardaboy Qoraboevich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrası professor v.b. pedagogika fanlari nomzodi.

E-mail: pardaboyxolmatov@gmail.com.

Raxmatova Moxinur Shovkat qizi

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti, 2 kurs
pedagoika yonalishi magistranti*

mohinurrahmatova71@gmail.com.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahon ta'limi tizimi taraqqiyotining nazariy-pedagogik asoslari bugungi kundagi ahamiyati va rivojlanish bosqichlariga oid fikr,mulohazalar keltirilgan.*

Tayanch iboralar: *ta'limning global tendensiyalari, qiyosiy pedagogika, komparativistik pedagogika, global ta'lim nazariyasi, raqamlashtirish va masofaviy ta'lim,inklyuziv ta'lim,STEM ta'limi, ta'limning rivojlanish bosqichlari,xalqaro hamkorlik va innovatsiyalar.*

Abstract. *This article presents the theoretical and pedagogical foundations of the development of the world education system, their current significance and stages of development.*

Key words: *global trends in education, comparative pedagogy, comparative pedagogy, global education theory, digitalization and distance learning, inclusive education, STEM education, stages of education development, international cooperation and innovation.*


Аннотация. *В данной статье представлены теоретические и педагогические основы развития мировой системы образования, их современное значение и этапы развития.*

Ключевые слова: *глобальные тенденции в образовании, сравнительная педагогика, глобальная теория образования, цифровизация и дистанционное обучение, инклюзивное образование, STEM-образование, этапы развития образования, международное сотрудничество и инновации.*

Ta'lim masalasi hamma davrlarda ham barcha mamlakatlar uchun birdek o'ta muhim masala bo'lib kelgan. Dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak mamlakatlar tarixidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, taxt va saltanat uchun kurashlar, mamlakat rahbarlari va xalqning dunyoqarashi natijasida yer kurrasidagi barcha mamlakatlarda

ta'lim tizimi turlicha taraqqiyot yo'lini bosib o'tganini ko'rishimiz mumkin. Jahon tarixi dunyo mamlakatlarida ta'lim masalasi qaysidir davrlarda gullab yashnagan bo'lsa, yana qaysidir davrga kelib tanazzulga yuz tutganini, qaysidir siyosiy davrda unutilib, qaysidir davrda siyosat masalasiga ko'tarilganini ko'rsatadi. Dunyo sivilizatsiyasida ilm-fan va ta'lim taraqqiyotiga muttasil ta'sir ko'rsatib kelgan omillarga siyosat, din, iqtisodiy hayot kabi ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin. Jahon ta'limi taraqqiyotini hega biz organishimiz kerak chunki ta'lim sohasidagi global jarayonlar, tendensiyalar va ularning ta'sirida ta'lim tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlar, ta'limning rivojlanish dinamikasini o'rganadigan fandır.

Jahon ta'limi tizimi taraqqiyotini organish ham qator maqsad va vazifalarga ega hisoblanadi. Jahon ta'limi tizimi taraqqiyoti organishning maqsadlariga quyidagilarni kiritish mumkin:



Jahon ta'limi tizimi taraqqiyoti fanining asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Turli mamlakatlarning ta'lim tizimlarini o'zaro solishtirish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash;
2. Raqamlashtirish, masofaviy ta'lim, STEM ta'limi kabi global tendensiyalarni tahlil qilish;
3. Zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni ta'lim tizimlariga integratsiyalashuvi samaradorligini o'rganish;

4. Ta'lim sohasida samarali davlat siyosatini shakllantirishga yordam beruvchi metod, usul va vositalarni ishlab chiqish;

5. Ta'limda teng imkoniyatlarni yaratish (inklyuziv ta'lim) va ijtimoiy adolat (ya'ni tili, dini, jinsi va irqidan qat'iy nazar barcha ta'lim oluvchilar)ni qo'llab-quvvatlash.

6. Ta'lim sohasida xalqaro tashkilotlar va mamlakatlar o'rtasidagi mustahkam hamkorlik prinsiplarini targ'ib qilish.

Bir so'z bilan aytganda ushbu fan ta'limning global miqyosda rivojlanishiga hissa qo'shadi va zamonaviy jamiyat talablariga mos keladigan ta'lim tizimlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogika taraqqiyoti davrida Yevropada jumladan, Angliya va Kanada davlatlarini rivojlantirishga juda ko'plab olimlar o'z hissasini qo'shganlar. Ushbu olimlar sirasiga Devid Selbi, Grem Payk, Devid Xiks kabilarni kiritish mumkin.

Devid Selbining ijodiy ishlarida Jahon ta'limi tizimi taraqqiyoti ning eng asosiy tushunchalaridan biri hisoblangan global ta'lim nazariyasi katta o'rin egallaydi. Olim o'zining Global ta'lim nazariyasini ko'proq kvant fizikasi tamoyillari kontekstida asoslagan bo'lib, ta'limning fazoviy, vaqt masalalari va o'lchovlarini ajratib ko'rsatishga harakat qilgan.

Grem Paykning ilmiy-ijodiy ishlarida esa, asosan "holistik tizimlar haqida fikrlash", ta'lim va tafakkur bog'liqligi hamda ta'lim jarayonining umrbod davom etishiga e'tibor qaratilgan.

Devid Xiksning qarashlarida ta'lim jarayoni va fuqarolik harakati, hayoti va orzu-umidlarining ta'lim jarayoni bilan muttasil integratsiyasi o'z ifodasini topgan.

Ushbu zamonamiz olimlarining 2023-yilda chop etilgan "Theoretical Foundations for Global Education" nomli hammualliflikda yaratilgan ilmiy monografiyasida Jahon ta'limi tizimi taraqqiyoti, uning o'ziga xos jihatlari, ta'limning asosiy xarakteristikasi, mazmuni va ahamiyati haqida qimmatli ma'lumotlar aks ettirilgan.

Jahon ta'limi tizimi taraqqiyotining rivojiga shuningdek Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida (MDH) mamlakatlari olimlarining qo'shgan hissasini ham alohida e'tirof etish lozim.

MDH mamlakatlarida asosan Rossiya va Belarusiyada taraqqiyotida rus olimlarining qo'shgan hissasi katta rol o'ynaydi. Jahon ta'limi tizimi taraqqiyoti fanining nazariy asoslarini rus pedagogikasining otasi deb e'tirof etiluvchi olim K.D.Ushinskiy mustahkamlagan desak xato bo'lmaydi. Konstantin Ushinsky o'zining "О народности в общественном воспитании" nomli asarida ta'limning milliy xususiyatlarini solishtirishga qo'l urgan. Mazkur asar jahonda ta'limning milliy mazmunini o'zaro taqqoslash, solishtirish va tahlil qilishga asoslangan asar sifatida yuqori qiymatga ega manbaa hisoblanadi.

MDH olimlari B.L.Vulfson va Z.A.Malkovalar Qiyosiy pedagogika ilmiy maktabini yartagan olimlar sifatida e'tirof etiladilar. Ular o'z ilmiy ishlanmalarida ta'lim

tizimining global tendensiyalarini tahlil qilgan olimlar sifatida Jahon ta'limi tizimi taraqqiyoti fanining rivojiga hissa qo'shganlar. Masalan Boris Vulfsonning 2002 yilda nashr etilgan "Методы сравнительно-педагогических исследований" nomli kitobida qiyosiy pedagogika tadqiqotining metodologik asoslari o'z ifodasini topgan.

A.N.Dzhurinskiy ham MDHning Qiyosiy pedagogikaga o'ziga xos hissa qo'shgan olimlaridan hisoblanadi. 1998 yilda chop etilgan "Сравнительная педагогика" nomli darsligida olim va pedagog fanning interditsiplinar xususiyatlarini alohida ta'kidlagan.

MDH mamlakatlari orasida Belorusiyada pedagog olimlar tomonidan fan rivojiga katta hissa qo'shilgan bo'lib, V.A.Kapranovani alohida e'tirof etish lozim. Valentina Kapranova 1993-yildan Belarus davlat pedagogika universitetida "Qiyosiy pedagogika" kursidan ta'lim bergan darslabki pedagoglardan hisoblanadi. Olima 2004 yilda chop etilgan "Сравнительная педагогика. Школа и образование за рубежом" nomli pedagogik tajribalari asosida yozilgan pedagogik manbaa muallifi hisoblanadi.

A.V.Xutorskoy aynan MDH mamlakatlarida ta'lim muhitini solishtirgan shaxs bo'lib, uning shu mazmundagi monografiyasi chop etilgan.

O'zbekistonda bu fan nazariy asoslari XX asr boshlarida jadidchilik harakati doirasida shakllangan bo'lib, klassik olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Ular ta'limni global va milliy kontekstda solishtirishga asos solgan. Misol uchun Abdulla Avloniy "Milliy ta'lim" g'oyalarini ilgari surgan. Yevropa ta'limi tajribasini o'rgangan va uning ijobiy jihatlarini O'zbekiston ta'lim sharoitiga moslashtirish g'oyasini taklif qilgan.

Jadidchi olimlardan Hamza Hakimzoda Niyoziy ta'lim islohotlarini targ'ib qilgan, jahon pedagogikasini o'rganishga chaqirgan ziyolilardan hisoblanadi. Sadridin Ayniy o'zining ilmiy izlanishlarida ta'limning ijtimoiy rolini ta'kidlab, sovet davri pedagogikasini rivojlantirishga juda katta hissa qo'shgan.

Zamonaviy davrda O'zbekiston olimlari Sh.Sh.Olimov, L.T.Axmedova kabi olimlar fan rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardan hisoblanadi. Jumladan, Shavkat Olimov qiyosiy pedagogika faniga doir darslik va metodikalar muallifi hisoblanib, olim ta'lim tizimlarini solishtirish bo'yicha ishlar olib borgan.

Laylo Axmedova pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston va qo'shni mamlakatlar ta'lim tizimini solishtirgan mazmundagi ilmiy tadqiqotlar muallifi hisoblanadi.

Bu olimlar O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari jumladan, Toshkent davlat pedagogika universitetida qiyosiy pedagogika fani bo'yicha ma'ruzalarni olib borgan shaxslardan hisoblanadilar. Yaqin kunlarga ushbu fan O'zbekistonda "Qiyosiy pedagogika" nomi bilan o'qitilib, asosan global tendensiyalarni mahalliy sharoitga moslashtirishga qaratilgan.

Qadim zamonlardayoq, falsafiy ta'limotlar mazmunida turli xalqlar va mamlakatlarda bolalarga qanday ta'lim-tarbiya berganliklari to'g'risida anchagina ma'lumotlar mavjud edi. Ularda ta'lim-tarbiya metodlari va qadriyatlari umumlashtirilgan bo'lib, katta avloddan yosh avlodga hayotiy tajribani qanday

yetkazilayotganligining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan edi. Birgina misol qizlar tarbiyasida ezgulik, nazokat va nafosat, mehnatsevarlik, kamtarlik va halollikni targ'ib qilishda o'zbek xalqining sevimli ertagi "Zumrad va qimmat"dan keng foydalanilgan bo'lsa, yevropa olamida "Zolushka", "Oppoqoy" kabi mazmuman bir-biriga yaqin ertaklardan foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ertaklar mazmuman va g'oya jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsada, mohiyatan o'zida milliy mentalitet elementlari, xalqning dunyoqarashi va qadryatlarini ham aks ettiradi.

Zamonaviy tilda "Qiyosiy pedagogika" va "Jahon ta'limi tizimi taraqqiyoti" fanlari komparativistik pedagogika yoki "komparativistika" deb ham ataladi.

"Komparativizm" (lot. comparativis - qiyosiy) qiyoslash va taqqoslash ma'nosini anglatib, tarixiy taraqqiyot tendensiyalarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, o'xshash hodisalarning o'zaro mos jihatlarini ajratishni o'zida mujassamlashtiradi. Ingliz tilida "to compare" so'zi ham "taqqoslash" degan ma'noni anglatadi.

Mustaqil falsafiy tushuncha sifatida "komparativizm" turli fan sohalarida, shuningdek, adabiyotshunoslikda turli xalqlar badiiy adabiyotida obraz va syujetlar rivojlanish jarayonini qiyosiy tarixiy tahlil etishda qo'llaniladi.

Ta'lim nazariyasida - komparativistika tushunchasi "qiyosiy pedagogika" tushunchasi bilan bir sinonmik qatorda turadi. Chet el manbalarida esa ko'proq "qiyosiy pedagogika" atamasi o'rniga "qiyosiy ta'lim" atamasi ishlatiladi.

Ta'lim insoniyat rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Bugungi kunda global ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va ochiq ta'lim resurslari kabi innovatsiyalar tufayli jadal rivojlanmoqda. Onlayn platformalar masalan, Coursera, Khan Academy kabi, shuningdek virtual dasturlar ta'limni dunyoning istalgan nuqtasida demokratlashtirdi, ya'ni bilim olish imkoniyati kengaydi. Shu bilan birga, ta'lim tizimlari mintaqalar o'rtasida tengsizlik, iqtisodiy cheklovlar va infratuzilma muammolari kabi muammolarga duch kelmoqda.

UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda hali ham 260 millionga yaqin bola maktab ta'limidan mahrum ekanligi aniqlangan.

Bugungi kunda insoniyat fan zamonaviy dunyoda innovatsiyalar va taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ekanligini tushunib yetib bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Sababi fan va ta'lim iqlim o'zgarishi, sog'liqni saqlash, energetika va sun'iy intellekt kabi sohalarda insoniyat oldida turgan global muammolarni hal qilishda yetakchi o'rin tutishini muttasil isbot etib kelmoqda. Ushbu tendensiyani tarixda kuzatilgan va misli ko'rinmagan ilm-fan sohasidagi kashfiyotlar uchog'i davriga aylangan ikkinchi jahon urushi davrida ham yaqqol kuzatish mumkin.

2019-yilda sodir bo'lgan COVID-19 pandemiyasi esa ushbu haqiqatni hana bir bor yuzaga chiqari desak xato bo'lmaydi. Sababi COVID-19 pandemiyasi davrida mamalakatlar ta'lim va ilm-fanini o'zaro hamjihatlikdagi harakati, ilmiy izlanishlarda

hamda xulosalardagi yakdillik natijasida insoniyat mazkur virusga qarshi vaksinalarni tez fursatda ixtiro qilish va ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bugungi kunda ekologiya masalalarida ham dunyo ta'lim tizimi o'zaro taqqoslama hamda almashinuv kayfiyatidagi ta'lim jarayonini boshdan kechirmoqda desak xato bo'lmaydi. Sababi qayta tiklanadigan energiya manbalari (quyosh, shamol) va uglerod emissiyasini kamaytirish texnologiyalari kabi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda muhim bo'lgan usul va kashfiyotlar bilan mamlakatlar muttasil fikr va tajriba almashib kelmoqdalar. Shunindek, bugungi kunda jahon ta'lim tizimi taraqqiyotida kechayotgan rivojlanish jarayonini texnologiyalar bilan bog'lamlaslikning iloji yo'q.

Sohalar orasida texnologiya taraqqiyoti nafaqat mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish balki, ta'lim sohasiga ham o'tkan ijtimoiy ta'sir ko'rsatib ta'lim tizimini bugungi kunda mutlaqo yangi bir davrga olib chiqdi desak xato bo'lmaydi.

Xususan, sun'iy intellektning ixtiro etilishi, onlay va virtual platformalarning ta'limdagi ishtiroki, katta ma'lumotlar tahlili ya'ni "big data"ning qo'llanila boshlashi, iqtisodiyot bilan bir qatorda ta'lim hamda unga tutash boshqa sohalarda ham misli ko'rinmagan samaradorlikka erishishga zamin yaratmoqda.

Fanda texnologiyalarning ustun jihati shundaki, ular nafaqat amaliy yechim beradi, balki insoniyatning dunyo haqidagi tushunchasini yanada kengaytirishga ham xizmat qiladi. Masalan, NASA, SpaceX loyihalari kvant fizikasi va koinotni o'rganish yo'naltirilgan loyihalar bo'lib, olingan natijalar asosida insoniyatning kelajakdagi rivojlanish yo'llarini belgilaydi, ilmiy jihatdan asosli giptezalarni qabul qilishga yordam beradi.

Misol uchun sun'iy intellektning noto'g'ri boshqaruvining o'ziyoq insoniyat rivoji va hayoti uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan yangi omillardan biridir.

Ayniqsa bugungi davr uchun fanning axloqiy mas'uliyati tushunchasi nihoyatda dolzarbdir, chunki ilm-fan yutuqlari hamda texnologiyalarni to'g'ri maqsad va ezgu xatti-harakat yo'lida qo'llash zarurati fan va texnika taraqqiyotining imkoniyatlari oshib borgan sari kuchayib boraveradi. Misol uchun sun'iy intellektning noto'g'ri boshqaruvining o'ziyoq insoniyat rivoji va hayoti uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan yangi omillardan biridir.

Jahon ta'limi bilimlarni umumlashtirib, fan rivojiga zamin yaratadi, fan esa insoniyatni yangi imkoniyatlar sari yetaklaydi. Bu ikki tendensiyaning aralashuvi global muammolarni yechish va barqaror kelajak qurishda juda muhim ahamiyatga ega.

Jahon ta'limining taraqqiyoti bugungi kunda fan rivojlanishi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega. Fan ta'lim orqali insoniyat yangi bilimlar, texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratadi, bu esa global muammolarni hal qilishda asosiy omil hisoblanadi. Quyida fan va ta'limning bugungi kundagi ahamiyatini bir necha asosiy jihatdan ko'rib chiqamiz (1.1-jadval):

1.1-jadval


1.	Fan ta'limi orqali yangi texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt, biotexnologiya, qayta tiklanadigan energiya manbalari va kosmik tadqiqotlar rivojlanadi. Bu esa ta'limda innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni vujudga keltiradi.	Masalan, sun'iy intellekt sohasidagi yutuqlar sog'liqni saqlash, transport va ishlab chiqarish kabi sohalarni tubdan o'zgartirmoqda.
2.	Ekologik muammlolar, iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi va pandemiyalar kabi global muammolarni hal qilish uchun fan va ta'lim integratsiyasi muhim rol o'ynaydi. Ushbu hamkorlik orqali global muammolarni hal qilish imkoniyati tug'uladi.	Masalan, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda fan olimlari qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va uglerod emissiyasini kamaytirish bo'yicha hamfikrlikda ishlamoqdalar.
3.	Ilg'or ta'lim tizimlari orqali malakali mutaxassislar tayyorlanadi, bu esa iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Texnologik kompaniyalar, startaplar va ilmiy-tadqiqot muassasalari fan asosidagi ta'lim tufayli rivojlanmoqda. Ushbu sayi harakatlar bevosita iqtisodiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi.	Texnologik kompaniyalar, startaplar va ilmiy-tadqiqot muassasa-larining ilmiy tadqiqot ishlari yanada kengayib takomillashib bormoqda.
4.	Fan va ta'lim ijtimoiy hayotda shaxslararo tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Onlayn ta'lim inkoniyatlari orqali dunyoning turli burchaklaridagi odamlar sifatli bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ijtimoiy tenglik va ta'lim oluvchilarda o'qish va o'rganish imkoniyatlarning kengayishiga yordam beradi.	Onlayn ta'lim platformalari va ochiq manbalar misol uchun MOOCs, Coursera yoki Khan Academy platformlari yuzlab ta'lim oluvchilarni virtual ta'lim muhitida birlashtirmoqda.

5.	Fan ta'limi nafaqat texnik bilimlarni, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyatga ega, chunki texnologiyalar rivojlanishi bilan birga fanga nisbatan axloqiy yondashuv muammolari ham ko'paymoqda. Bu esa tanqidiy fikrlash va axloqiy mas'uliyat tushunchasini yanada rivojlantiradi.	Masalan, sun'iy intellektning xavf-xatarlarini misol qilib keltirish mumkin.
----	---	--

Jahon ta'limining sohasidagi taraqqiyoti insoniyatni yangi imkoniyatlar sari yetaklaydi. U nafaqat iqtisodiy va texnologik rivojlanishni ta'minlaydi, balki global muammolarni hal qilish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va kelajak avlodlarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Jahon ta'limi taraqqiyotining rivojlanish bosqichlari uzoq yillik ma'daniy va ilmiy sivilizatsiyani o'z ichiga oluvchi ko'p yillik jarayon hisoblanadi. Chunki ta'lim insoniyat taraqqiyoti va rivojlanishining eng muhim qismi bo'lib, uning tarixi ming yilliklarni qamrab olishi hech birimizga sir emas. Shu sababdan jahon ta'limi taraqqiyotining rivojlanish bosqichlarini bir qator tarixiy davrlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Dunyo tarixi fanining konkret ma'lumotlariga asosan jahon ta'limi taraqqiyotining rivojlanish bosqichlarini 7-rasmida keltirilgan davrlarga bo'lish o'rinli bo'ladi.

Bundan tashqari turli mintaqalarda yashagan aholining milliy mafkurasi, urf-odat va an'analari dini, tili hamda e'tiqodi, mintaqalarning geografik joylashuvi va imkoniyatlari ham ulardagi ta'lim tizimi taraqqiyotiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan. Misol uchun okean oldi hududlari aholisi uchun bolaga baliq tutish va suzishni o'rgatish ta'lim va tarbiya jarayonida muhim vazifa hisoblangan bo'lsa o'rmon hududlarida yashovchi qabila bolalari uchun ov qilish va tirik qolish ko'nikmalarini o'zlashtirish muhim hisoblagan. Shu sababli, jahon ta'limi taraqqiyotining rivojlanish bosqichlarini shuningdek Yevropa, Osiya, Yaqin Sharq kabi mintaqalarga bo'lib o'rganish ham maqsadga muvofiqdir.



1.1-rasm. Jahon ta'limi taraqqiyotining tarixiy rivojlanish bosqichlari

Keling endi siz bilan birgalikda jahon ta'limi taraqqiyotining tarixiy rivojlanish bosqichlarining har biriga alohida to'xtalib, mazmun va mohiyatni tahlil qilib chiqsak.

1. Qadimgi davr (miloddan avvalgi 3000–500 yillar) - jahon ta'limi taraqqiyotining tarixiy rivojlanish bosqichlarining eng birinchi davri hisoblanadi. Bu bosqich ta'limning ilk shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, asosan yozuvning paydo bo'lishi va sivilizatsiyalarning rivoji orqali shakllanganligini ko'rishimiz mumkin.

Tarixiy manbaalar shuni ko'rsatadiki, qadimgi Mesopotamiya va Misrda ta'lim asosan diniy va amaliy maqsadlarga xizmat qilgan. Masalan, Mesopotamiyada miloddan avvalgi 3000–1500 yillarda ta'lim yozuvi klinopis va hisob-kitobga asoslangan bo'lib, bolalar maxsus maktablarda ta'lim olganlar. Bunday maktablar “edubba” deb nomlangan. Ushbu maktablarda bolalar ruhoniylar va davlat amaldorlari sifatida tayyorlanganlar.

Qadimgi Misrda esa Mesopotamiyadan farqli ravishda ta'lim farovonlik va ma'muriy ishlar bilan bog'liq bo'lgan. Bu yerda bolalar “ieroglif” yozuvini o'rganib, qurilish va tibbiyot kabi sohalarda malaka oltirganlar. Ya'ni ta'lim diniy aralashuvdan erkin va mustaqil bo'lganini ko'rish mumkin.

Yunoniston va Rimda esa ta'lim bolaning aynan falsafiy va jismoniy rivojiga qaratilgan. Misol uchun Afinada miloddan avvalgi 700–480 yillarda Sokrat va Platon kabi faylasuflar akademiyalar tashkil qilganlar va bu yerda asosan “dialektika” va “retorika” o'rgatilgan.

Xitoy va Hindistonda esa ta'limda Konfutsiy ta'limoti juda katta o'rin egallagan. Miloddan avvalgi 551–479 yillarda va Vedalar ta'limoti axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan bo'lganini ko'rish mumkin. O'ziga xos tomoni shundaki bu

davrda ta'lim "elita"ga xos bo'lib zodagonlik ta'lim olishda muhim jihat hisoblangan. Miloddan avvalgi 3100 yillarda yozuv ixtirosi orqali bilimlarni saqlash va uzatish imkoniyati paydo bo'lgan.

2. O'rta asrlar (500-1500 yillar). Tarixiy manbaalarning guvohlik berishicha o'rta asrlarda ta'lim diniy institutlar nazoratida bo'lgan. Misol uchun Yevropada monastirlar va cherkov maktablari asosiy markazlar edi. 500–1500 yillarda "skolastika" ya'ni diniy ta'limotlarning mantiqiy tahlili nihoyatda rivojlangan.

Yevropa mintaqasining o'ziga xos jihati shundaki bu yerda o'rta asrlardayoq birinchi dorilfunun (universitet)lar paydo bo'la boshlagan. Misol uchun 1088-yilda Boloniya universitetining tashkil topishi, 1096-yilda Oksfordning ochilishi aynan shu davrga borib tutashadi. Ushbu universitetlarda asosan huquq, tibbiyot va falsafa o'qitilgan.

Yaqin Sharq va O'rta Osiyo mintaqalarida bu davrda islom dini ta'siri ostida madrasalar rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu mintaqada o'rta asrlarda Al-Xorazmiy (780–850 yillar) va Ibn Sino (980–1037 yillar) singari buyuk mutafakkirlar matematika, tibbiyot kabi aniq fanlarni o'rgatgan. Yaqin Sharq va O'rta Osiyo mintaqalarida islom dini hukmron bo'lishiga qaramay, ilmiy madrasalar va sharq akademiyalari (Ma'mun akademiyasi, Baytul-hukmat, keyinchalik Ulug'bek mardasasi)da ta'lim faqat diniy emas aksincha ilmiy va amaliy mazmunga ega bo'lgan. Aniq va tabiiy fanlar chuqur o'rganilgan va o'z davrining muhim ilmiy ixtirolari qo'lg'a kiritilgan.

Ammo o'rta asrlarda ta'lim ommaviy xarakterga ega emas edi. Shuning uchun ham bu davrda ta'lim din va elita ya'ni zodagon qatlam vakillari uchungina mavjud bo'lib, unda ayollar ishtiroki barcha mintaqalar chegaralangan bo'lgan shunindek, quyi tabaqalar uchun ta'lim olish imkoniyati cheklangan.

3. Uyg'onish va islohot davri (1500–1700 yillar). Uyg'onish davri ta'limda gumanizm va individual rivojga o'tishni belgilagan davr hisoblanadi. Bu davrda Italiya va Yevropada Leonardo da Vinchi va Erasmus kabi mutafakkirlar ta'limni san'at va fan bilan bog'laganlar. Reformatsiya davri ham aynan shu vaqtlarda sodir bo'lgan bo'lib, eng faol reformatariyalardan biri 1517-yilda Martin Lyuter "protestant maktablari"ni ochishga hissa qo'shgan. Ushbu davrda ta'lim oluvchilar uchun Bibliya ya'ni Injilni o'qish va o'rganish majburiy hisoblangan.

Amerika va Osiyoda esa ushbu davrda mustamlakachilik ta'sirida "missioner maktablari" ochilgan. Uyg'onish va islohot davrining o'ziga xos yutuqlaridan biri bu 1440-yilda Gutenberg bosmaxonasining ixtiro qilinishi bo'lgan. Ushbu ixtiro natijasida kitoblarni ommaviy ishlab chiqarishga imkon yaratilib, ta'lim imkoniyati kengaytirilgan. 1635-yilda Amerikada "Boston Latin School" nomli birinchi innovatsion maktab tashkil etilib, uning asosiy maqsadi bolalarni kollejga kirishga tayyorlashdan iborat bo'lgan. Eng muhim jihatlardan yana biri uyg'onish va islohot

davriga kelib dunyodada ta'lim tizimi diniy xarakterdan voz kechib, gumanitar va ilmiy xarakterga o'ta boshlagan.

4. Ma'rifat va sanoat inqilobi davri (1700–1900 yillar). Ushbu davrda davrida Volter va Russo kabi shaxslar tomonidan ta'limni ommaviy va davlat nazoratida qilish g'oyasi ilgari surila boshlangan. Misol uchun 1789-yilda Fransiya inqilobida hamda Germaniyada majburiy boshlang'ich ta'lim joriy etishga erishilgan.

1760-1840 yillar “sanoat inqilobi” nomi bilan tilga olinishiga sabab ta'limda sano'at tarmoqlari uchun ishchi kuchini tayyorlash zarurati paydo bo'lgan. Shu sababli Robert Owen (1771–1858) Buyuk Britaniyada fabrikalarda bolalar maktablarini ochgan. AQShda Horace Mann (1796–1859) ommaviy ta'lim tizimini yaratgan. Ushbu davrning o'ziga xos jihati shundaki, ta'lim ommaviylik va majburiylik xarakterini ola boshlagan. Aynan mana shu davrda 1852-yilda Massachusettsda majburiy ta'lim qonunlari joriy etilib, savodxonlik darajasi osha boshlaganligini, ta'lim diniy emas sanoat va iqtisodiy ehtiyojlarga moslashtirila boshlaganini ko'rishimiz mumkin.

5. XX asr (1900-2000 yillar). Ta'limda ommaviy va progressiv o'zgarishlar bilan kechganligi bilan ajralib turadi. Ushbu davrda Jon Dyui (1859–1952) progressiv ta'limni taklif qilib, tajribaga asoslangan o'qitishni joriy etgan. Ikkinchi Jahon urushidan keyin BMT va UNESCO ta'lim huquqini e'lon qilganligi mazkur davrning o'ziga xos yutuqlaridan biri desak xato bo'lmaydi. Masalan, 1948-yilda qabul qilingan “Inson huquqlari” Deklaratsiyasi ta'limni “majburiy” ekanligini belgilashga xizmat qilgan. Sovet Ittifoqida va Xitoyda ta'lim asosan industrializatsiya uchun ishlatila boshlangan. Bu davrda sodir bo'lgan eng muhim o'zgarishlardan yana biri 1980-yillarda kompyuter texnologiyalarining yaratila boshlanganligi va 1972-yilda AQShda Title IX gender diskriminatsiyasini taqiqlash natijasida gender tengligi ya'ni ayollar ta'limi imkoniyatlarining kengayganligi hisoblanadi.

6. Zamonaviy davr (2000-yildan hozirgacha). Zamonaviy va global raqamli ta'lim davri bo'lib, internet va onlayn platformalar ta'limni yangicha davrga olib chiqdi. COVID-19 pandemiyasi ta'siri ostida 2020-yildan masofaviy ta'limning misli ko'rinmagan taraqqiyoti yuzaga kelib, Zoom va Google Classroom kabi vositalar ta'lim maqsadlarida keng omma tomonidan butun dunyoda ishlatila boshladi. Ta'limni hamma uchun “ochiq”lik xarakterini namoyon qilib, rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim barqaror rivojlanish maqsadlariga moslasha boshladi. Bu davrning eng muhim o'zgarishlaridan yan biri AI (aqilli intellekt) va virtual reallik ta'limni shaxsiylashtirila boshlandi. Masalan, Finlyandiyada 2016-yil ana shunday vositalardan biri yangi “kurrikulum” tajribaviy o'rganishga asoslangan metodika qo'llanishi natijasida, savodxonlik darajasi 99% ga yetgan.

Xulosa qilib aytganda, jahon ta'limi taraqqiyoti sivilizatsiya rivoji bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir bosqichda jamiyat ehtiyojlariga moslashgan. Bugungi kunda ta'lim global muammolarni hal qilish vositasiga aylanib bormoqda. Jahon ta'limi

taraqqiyoti fani ta'limning global jarayonlari, tendensiyalari va o'zgarishlarini o'rganuvchi pedagogik yo'nalish bo'lib, uning mohiyati ta'limning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy omillar bilan bog'liqligini tahlil qilishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (Yangi tahrir). – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". – 2019-yil 8-oktabr.
3. Xodjayev B.X., Saidov A.X. Jahon ta'lim tizimlari va qiyosiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Ismoilov U.Sh. Jahon ta'lim tizimlarining qiyosiy tahlili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021.
5. Abdurahmonova D.T. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash masalalari. Ped. fan. bo'yicha PhD diss. – Toshkent, 2020.
6. Иванова Н.П. Тенденции развития мировых образовательных систем. Дисс. канд. пед. наук. – Москва, 2019.
7. Smith J. Global Trends in Education Systems Development. PhD Dissertation. – University of London, 2020.

ELEKTRON VA NORMATIV MANBALAR

1. UNESCO Institute for Statistics. Education Data and Indicators.
2. World Bank. Education Sector Strategy.
3. OECD Education Database.
4. European Commission. Education and Training Monitor.
5. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumati portali
6. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari mta'lumotlari milliy bazasi.
7. ziyonet.uz